

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR DUNYOQARASHINI
SHAKLLANTIRISHDA JADID MA'RIFATPARVARLARINING MEROSI - MA'NAVİY
EHTIYOJ SIFATIDA**

Ismoilova Sevara O'tkir qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi birinchi kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15190445>

Annotatsiya. *Jahon madaniyati xazinasidan munosib o'rin egallagan durdona asarlar asrlar davomida yuzlab va minglab ilmiy tadqiqotlarda mahoratning eng yuksak cho'qqisi sifatida tahlil etilib, o'z munosib bahosini olgan bo'lsa, o'sha asarlar mualliflarining bir inson, faol yaratuvchi va adolat jangchisi sifatida, ijtimoiy hayotga yo'nalish beruvchi ijodkor kuch sifatidagi xizmatlari ham hamma vaqt ta'lim va tarbiya sohasida bosh mavzularidan biri bo'lib kelgan. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashini shakllantirishda jadid ma'rifatparvarlarining me'rosidan foydalanishning metodik imkoniyatlari haqida fikr-mulohaza berilgan.*

Kalit so'zlar: *jadidchilik, ta'lim-tarbiya, ilm olish, bolalar dunyoqarashi, maktabgacha ta'lim, ma'naviy meros.*

**МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАСЛЕДИЯ
НОВЫХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ ДЕТЕЙ
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

Аннотация. *Если шедевры, занявшие достойное место в сокровищнице мировой культуры, на протяжении столетий анализировались и оценивались в сотнях и тысячах научных исследований как высшая вершина мастерства, то заслуги авторов этих произведений как личностей, активных творцов и борцов за справедливость, как творческих сил, задающих направление общественной жизни, всегда были одной из главных тем в области образования и воспитания. В статье дается обзор методических возможностей использования наследия современных просветителей в формировании мировоззрения детей дошкольного возраста.*

Ключевые слова: *джадидизм, образование, обучение, мировоззрение детей, дошкольное образование, духовное наследие.*

**METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF USING THE HERITAGE OF THE NEW
ENLIGHTENMENTALISTS IN FORMING THE WORLDVIEW OF PRESCHOOL
CHILDREN**

Abstract. *Masterpieces that have taken a worthy place in the treasury of world culture have been analyzed and appreciated in hundreds and thousands of scientific studies over the*

centuries as the highest peak of skill, while the merits of the authors of those works as a person, an active creator and a fighter for justice, as a creative force that gives direction to social life have always been one of the main topics in the field of education and upbringing. This article provides an opinion on the methodological possibilities of using the heritage of Jadid enlighteners in shaping the worldview of preschool children.

Keywords: Jadidism, education, learning, children's worldview, preschool education, spiritual heritage.

Kirish. Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashini shakllantirishda jadid ma'rifatparvarlarning ilmiy, ma'naviy merosida ilgari surilgan vatanparvarlik, o'zlikni anglash, tashabbuskorlik, insonparvarlik, shaxs kamoloti, bag'rikenglik borasidagi qarashlari asosida yosh avlodni ma'naviy yetuk etib tarbiyalash, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga oid islohotlar izchil olib borilmoqda. "O'z zamonining ilg'or namoyandalari bo'lgan jadidlar g'oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g'oyasi bilan maydonga chiqdilar. Biz ma'rifatparvar bobolarimizning muqaddas orzularini ro'yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilaganmiz. Shu maqsadda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat sohalarida tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Biz xalqaro ilmiy markazlar, dunyo olimlari bilan hamkorlikda jadidlar faoliyatini yanada chuqur o'rganishni dolzarb vazifa deb hisoblaymiz". Shu nuqtai nazardan jamiyatning yangi taraqqiyoti davrida inson ma'naviy qiyofasini yuksaltirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish omili bo'lgan ta'lim, ya'ni "ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi"ning konstruktiv ahamiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy qism. Jadidlarning jamiyat taraqqiyoti rivojida ta'limning o'rni va u bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muammolar mutaxassislar tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy hamda ma'naviy-siyosiy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Jumladan xorijlik olimlar H.Kare d'Enkauz, E.Ollvort, Adib Xalid, Komatsu Hisao, B.Ingeborg asarlarida Turkistonda ta'lim taraqqiyotiga oid ma'lumotlar, o'lkadagi musulmon va rus tuzem maktablariga doir tahlillarni o'z ichiga olgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida Turkistonda shakllangan ta'lim tizimi, zamonaviy maktablar, o'qitish metodikasi va o'qituvchilik faoliyatiga doir muammolar A.Maniyozov, M.Shukurov, Stefan A. Dyuduan'on, R.Hodizoda, SH.Radjabov, N.Nurtazina, N.Gafarov, R.Niyoziy kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan. V.Bartold, N.Bobrovnikov, I.I.Umnyakov asarlarida Turkiston xalq ta'limini rivojlanish jarayoni, jadidlarning yangi usul maktablari, Turkiston o'lkasidagi matbuot va teatr masalalari rivoji o'rganilgan va Turkistonda ilk "usuli jadid" shaklidagi maktablarning paydo bo'lishi tarixi ochib

berilgan. O'zbekistonda jadid ma'rifatchiligi mohiyatini falsafiy nuqtai-nazardan I.Mo'minov, B.Ergashev, Q.Nazarov, Sh.Madayeva, G.Mahmudova, S.Abduvohidov, X.Ashurova, D.Amrudinova, Yu.Namozova, N.Xakimov kabi olimlar tomonidan tahlil etilgan, ularning ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy va estetik, ta'lim tizimi, madaniyati masalalariga oid qarashlari ochib berilgan. D.Alimova, H.Ziyoyev, S.Xolboyev, D.Rajabova, D.Jamolova kabi tarixchi, filolog olimlar esa, Turkistonda ta'lim muassasalarining tuzilmasi, ma'muriy modeli, o'sha davr ta'lim tizimidagi chorizm tuzumi siyosati, ta'lim jarayonining ijtimoiy tabaqalashtirish tamoyillari masalalarni o'rganganlar. Turkiston jadidlarining yo'l boshchisi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy ta'limning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ta'kidlab: "Zamon ilm va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga paymol bo'lur", - deb yozadi. Millat o'z davrining zamonaviy ilm-fanini egallamas ekan, o'zligini anglay olmaydi, shuning uchun boshqa xalqlarga qaram bo'lishga majbur bo'ladi va jamiyatning taraqqiy etishiga zamin yarata olmaydi. Ularning fikricha, faqat milliy ta'lim olish kifoya qilmaydi, chunki fan va texnika hamda dunyo ilmlarini maktabgacha ta'lim tizimidan isloh etish belgilab qo'yilgan. Fitrat "Oila" asarining bir bobini "Qizlar ham ilm olishi kerakmi?" deb nomlaydi. Fitratning bu masalani ko'tarishiga sabab: "Farzandlarning kelajakda qanday shaxs bo'lib yetishishlari, ularga onalari qanday tarbiya berganliklariga bog'liq bo'ladi", - deb ko'rsatadi. Asarning mazkur bobida nafaqat o'z zamonasi uchun, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan shunday ilg'or fikrlar bor: "Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz lozim, ya'ni ular iymonli, fidokor, g'ayratli bo'lib ulg'aysinlar. Bu matlabga erishish uchun millat onalari tarbiya va ilm olishlari, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari lozim. Aks holatda xotinlarimiz erkaklardan ko'ra qo'rqqoq, zaifroq va g'ayratsiz bo'lganlaridan, bolalarimiz ham ularga o'xshab ketadilar".

Asarning ikkinchi qismida Fitrat bolaning har tomonlama barkamol bo'lib yetishishida axloqiy tarbiyaning o'rnini juda katta ekanligi va bunda avvalo ota-ona va muallimlarning o'zlari ham go'zal axloqli bo'lishlari zarurligini ta'kidlaydi. Ota-ona o'z farzandlari tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishlari uchun ular avvalo, farzand tarbiyasi haqida muayyan bilimga ega bo'lishlari kerak. Ularning har ikkisi o'z vazifasini, ota-onalik burchini mukammal ado etishlari, toki ular "Farzandni jisman, aqlan va axloqan kamolga yetishtirib, hayot maydoniga kuchli, aqlli va yaxshi axloq bilan chiqarishi zarur" A.Fitrat bola tarbiyasi xususida, bolani to'laqonli kamol toptirish uchun unga jismoniy, axloqiy va ma'rifiy tarbiyalarni o'z ichiga olgan ko'p qirrali ta'lim-tarbiya majmuini singdirish muhimdir. Fitrat bolaning ruhiyati, ota -ona va farzand ruhiyatlarining nisbati va o'zaro bog'lanishi masalalarini bilimdon ruhshunos-pedagog olim sifatida tahlil qiladi.

Taraqqiyparvarlar oilada er-xotin farzandining tug'ilgan kunidan boshlab har tomonlama tarbiya berishni birma-bir ko'rsatib o'tadi, Chaqaloqning tug'ilgan kunidan boshlab ona sutining

berilishidan to kamolga yetguniga qadar tarbiyalariga alohida to'xtaladi. O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi tarbiyada ham tafovut bor. O'g'il farzandning tarbiyasiga nisbatan qiz farzandning tarbiyasi bir muncha og'ir va murakkabdir.

Jadidlar nazarida, "O'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalar ilm-u donish o'rganishga kirishsinlar. Zeroki ular ota-ona manzilida bo'lgan vaqtlarida ota xonadonini tartibga solib, ziynat berib yursalar, jufti haloli manziliga borgach, bolalar tarbiyasi bilan, kelajak ne'matlarining ta'limi bilan mashg'ul bo'lmoqlari lozim bo'ladi". Bu borada Gasprinskiyning "Doru r-rohat musulmonlari" asarida maktabda qizlarga uy-ro'zg'or idorasi hamda onalik degan kurslar ochish kabi takliflarini eslash joizdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Jadidlar yangi usul maktablari ochib, bolalarga butunlay yangicha usulda ta'lim berganlar. Yangi usul maktablari ochilgach, ularning oldida maktablar uchun darsliklar yozish muammosi turardi. Tarix va geografiya fanlarining jamiyat hayotidagi ahamiyatini yaxshi tushungan jadidlar ushbu fanlar darsliklarini yaratishga katta e'tibor qaratganlar. Turkistondagi jadidlarning yo'l boshchisi Mahmudxo'ja Behbudiy Abduqodir Shakuriyning yangi usul maktabini o'z uyiga ko'chirib keltirgach, 1904-1909-yillarda o'zbek va tojik tillarida shu maktab bolalari uchun "Risolai asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi", 1904), "Risolai jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish", 1905), "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya", 1906), "Amaliyoti islom" (1908), "Kitobat ul-atfol" ("Bolalar xati", 1908), "Tarixi islom" (1909), "Muxtasar jug'rofiyai Rusiya" ("Rossiyaning qisqacha geografiyasi") darsliklarini yozgan.

Jadidlarning yangi usul maktablari uchun yozgan darsliklari o'sha davr uchun inqilobiy ahamiyatga ega edi. Chunki darsliklarda jadidlarning o'zlari yashagan davr ilmfani bilan qadriyatlar uyg'unligiga, darslikda ma'lumotlarni taqdim qilishda o'lka aholisining bilimi va saviyasini nazardan chetda qolmaganiga guvoh bo'lamiz. Jadidlar orasida ayniqsa Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlar alohida ajralib turganlar. Jadidlar ayniqsa, tarix va geografiyaga oid darsliklarni mukammal qo'llanma bo'lishiga katta ahamiyat berganlar. Filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev jadid darsliklari haqida shunday fikr bildiradi: "Millatning asosiy qismi musulmon farzandi bo'lgani uchun ham ilk islomiy bilimlarni berishga harakat qildilar. Bu yo'lda Mahmudxo'ja Behbudiy "Muxtasar islom tarixi" (1913), Abdulla Avloniy "Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom" (1913), Abdurauf Fitrat "Muxtasari tarixi islom" (1915) va boshqalarning boshlang'ich maktablar uchun yozgan muxtasar islom tarixlari arziqli qadam bo'ldi". Ular xalq ongiga ma'rifat orqali o'lka aholisini bilimini oshirishga e'tibor berganlar.

Bu borada Behbudiyning quyidagi fikrlari hozirgi globallashuv zamonida ham dolzarbdur: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur.

Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lar. Jadidlar ta'lim sohasini isloh qilish hamda maktablarda «usul ul-jadid» yoki «yangi usul»ni tatbiq qilish va rivojlantirgan. Bu yo'lda ular imkoniyatida mavjud jamiki resurslar - iste'dodlari, shaxsiy mablag'lari, uy-joylari, siyosiy va madaniy institutlar, matbuot hamda teatr, ma'rifat uylari va hokazodan to'liq foydalandilar, hatto aziz umrlarini ham fido qilishdi. Avval chor hukumati, keyin sho'rolar davlati, ichki qora kuchlar – mutaasib, dinni noto'g'ri talqin qilgan johil ulamolar tomonidan ko'rsatilgan zulm-zo'ravonliklar, tazyiqlar, quvg'inlar, suiqasdlarga qaramay, jadidlar o'zlari tanlagan yo'ldan qaytmadilar.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda farzandlarimiz o'zimizdan ko'ra kuchli, aqlli va baxtli insonlar bo'lib yetishishlari uchun jadid ma'rifatparlar asarlaridan foydalanishimiz lozim.

Ularning qarashlarida millatni kishanlab, ortga tortayotgan, uning qon-qoniga bee'tiborlik, xorlikni singdirib kelayotgan narsa - ilmsizlik bosh mohiyat kasb etadi. Ilmsizlik o'z navbatida madrasa-maktablardagi dars usullarining buzilishi, intizomsizlikni keltirib chiqargan.

Ko'rsatilgan yo'l-yo'riqlar, ijtimoiy qonunlar, ilm va tarbiya maskanlarini isloh qilish zarurati saqlaydi. Ilmdan uzoq bo'lgan odam turli yomon sifatlarni o'zida jamlanganini o'zi ham bilmay qoladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashini shakllantirishda jadid ma'rifatparvarlarining me'rosida nodonlik va jaholatni, ayyorlik, firibgarlikni, isrofgarchilik, ziyonkorlik, sarkashlik, g'azab, pastkashlik, hirs, hayosizlik va xushomadni qoralaydi. Har bir salbiy xislat egasiga tavsif berar ekan, odamlarni ulardan uzoqroq yurishga, ehtiyot bo'lishga chaqiradi. Bola tarbiyasida ehtiyotkor bo'lishni, qunt bilan yondashuvni, millat ertalariga ko'r-ko'rona yondashishmaslikni, vatanimiz ertalari ilimli, zukko, tarbiyali, axloqli bo'lishga undaydi.

Jadidlar ma'naviy-axloqiy merosi, ular qoldirgan betakror asarlari o'zbek xalqining o'tmish ma'naviy hayotining rivojlanishida alohida sahifa bo'lib, yuksak falsafiy asarlari xalqchilligi bilan bashariyatni o'ziga rom qilaveradi.

REFERENCES

1. Рахимов Ф. Б., Шарипова М. Б. МЕСТО ИННОВАЦИЙ В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ПРОБЛЕМ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ //Academy. – 2020. – №. 5 (56).
2. Шарипова М. Б., Садуллоева М. Б. К. ПРОФЕССИЯ «УЧИТЕЛЬ» И ЕЁ РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46)
3. Шарипова М. Б., Мустакимова Г. А. Наследие мыслителей в эстетическом воспитании учащихся начальной школы //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 10-5. – С. 48-49.

4. Ахмедова М. Ш., Шарипова М. Б. ВОСПИТАНИЕ РЕБЕНКА НА ОСНОВЕ НАРОДНЫХ ТРАДИЦИЙ //Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч. – 2016. – С. 118.
5. Шарипова М. Б., Истамова З. Особенности этического воспитания детей дошкольного возраста //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 39.
6. Шарипова М. Б., Саъдуллаева М. Б. К. РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
7. Шарипова М. Б., Ашурова Ф. А. Межличностные отношения в дошкольном возрасте //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 35
8. Шарипова М. Б., Нетьматова Ш. Н. Формирование эстетической культуры воспитанников дошкольных образовательных учреждений //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 3-3. – С. 113.
9. Камилова, Г. А., Курбанова, Г. Р., & Джаббарова, С. З. (2020). Особенности формирования педагогических навыков у воспитателей дошкольно-образовательных учреждений. *Academy*, (5 (56)), 25-27.
10. Камилова, Г. А., & Тураева, О. С. К. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Проблемы науки*, (4 (63)), 50-52.
11. Камилова, Г. А., & Курбонова, Г. Р. (2020). Эффективность экологического образования: образование дошкольников с помощью педагогических технологий. *Academy*, (12 (63)), 60-62.
12. Камилова, Г. А., & Курбонова, Г. Р. (2020). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ОБРАЗОВАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. *Academy*, (12), 60-62.
13. Камилова, Г. А. (2021). Развитие системы дошкольного образования. *Вестник науки и образования*, (16-2 (119)), 86-88.
14. Alimovna, K. G. (2022). Laws of Ecological Education. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 241-244.
15. KAMILOVA, G. (2024). EKOLOGIK TARBIYADA PAREMIOLOGIYA VA UNING XUSUSIYATLARI. *News of the NUUz*, 1(1.1), 83-86.
16. Kamilova, G. A. (2024). PARAMERIK JANRLAR VOSITASIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV. *Inter education & global study*, (5), 565-5574.

17. Камилова, Г. А. (2023). Мактабгача Таълим Ташкилотларида Экологик Тарбия. *Miasto Przyszłości*, 42, 330-333.
18. Kamilova, G. A., & Rozieva, Z. E. (2022). Botirova. *Ню А. Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni ekologik-gigienik tarbiyalash imkoniyatlari. Maktabgacha talim-Maktab-Oliy talim konsepsiyasi muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmly-amaliy anjuman materiallari. Buxoro*, 46-48.
19. Kamilova, G. A., & Rozieva, Z. E. (2022). Botirova. *Ню А. Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni ekologik-gigienik tarbiyalash imkoniyatlari. Maktabgacha talim-Maktab-Oliy talim konsepsiyasi muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmly-amaliy anjuman materiallari. Buxoro*, 46-48.
20. Kamilova, G. (2020). Maktabgacha talim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 1(1).
21. Камилова, Г. А., & Нарзиева, Д. Б. (2022). Повышение экономической грамотности у детей дошкольного возраста с помощью развития коммуникативных компетенций. *Вестник науки и образования*, (8 (128)), 44-46.
22. Камилова, Г. А., & Нарзиева, Д. Б. (2022). КОММУНИКАТИВНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ. *Вестник науки и образования*, (8 (128)), 47-50.
23. Kamilova, G. A. Go'Zal Rajab Qizi Qurbonova (2021). *МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTIARIGA RAHBARLIK VA BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. Scientific progress*, 2(7), 1149-1153.
24. Kamilova, G. A. (2021). *МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTIARIGA RAHBARLIK VA BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. Scientific progress*, 2(7), 1149-1153.
25. Камилова, Г. А., Султонова, М. И., & Бобожонова, М. А. (2023). ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ STEAM В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Вестник науки и образования*, (5 (136)-2), 41-44.
26. Safarova, S., & Kamilova, G. (2024). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING ERKIN FIKIRLASHINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING АНАМИЯТИ. *Modern Science and Research*, 3(12), 504-507.
27. Камилова, Г. А., Мухаммедова, М. М., & Жабборов, О. С. К. (2023). МЕТОДИКА СИСТЕМАТИЧЕСКОГО ВКЛЮЧЕНИЯ МЕНТАЛЬНОЙ АРИФМЕТИКИ ЧЕРЕЗ ИГРЫ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. *Вестник науки и образования*, (5 (136)-2), 38-41.

28. Камилова, Г. А., & Кулиева, Х. Г. (2023). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. *Вестник науки и образования*, (4 (135)), 82-84.
29. Jabbarov, I. A. U. (2022). TYPOLOGY AND FUNCTIONS OF A COMPLIMENT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 854-860.
30. Alimovna, K. G., & Abduraufovna, B. A. (2025). INNOVATIVE APPROACHES TO CREATING A DEVELOPMENTAL ENVIRONMENT FOR PRESCHOOL CHILDREN. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 3(3), 1-5.